

“Mahr” tushunchasi: qonunchilik va shariat (“Mahr” tushunchasini qonunchilikka kiritish muammolari)

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar¹da mahr tushunchasini qonunchilikka kiritish bo‘yicha takliflar bildirilmoqda, jumladan, “Misrda erkaklar o‘zi va oilasi yashashi uchun aniq uy-joy topmaguncha uylanmasliklari, Eronda ham mahr masalasida juda katta cheklov qo‘yilganligi, diniy e‘tiqodimiz nuqtai nazaridan 90 foizdan ortiq aholi musulmon bo‘la turib nima uchun mahr bilan bog‘liq bo‘lgan “senz”²ni qo‘ya olmayotganligimiz, ajrashmoqchi bo‘lgan erkak xotiniga uy-joyni tashlab ketish imkoni bo‘lsagina uylanish kerakligi, bo‘lmasa uylanish kerak emasligi”, kabi takliflar bildirilgan.

Mazkur taklif va fikr mulohazalar jamoatchilik orasida keng muhokama qilinib kelinmoqda hamda bu takliflarning zamirida qanday asoslar mavjudligi munozarali masalalardan biridir. Shuning uchun bu borada ilmiy asoslangan holda munosabat bildirish maqsadga muvofiqdir.

Mahr o‘zi nima? Islom dini rasmiy hisoblangan Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar kabi davlatlar nikoh tuzishda erning arizasi, avvalo, “muxtor” shariat qonunshunosi tomonidan tasdiqlanib, fuqarolik holatini qayd etish idoralarida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bu idorada hokimiyat vakili ishtirokida nikoh shartnomasi tuziladi. Nikoh bitimini er, xotin tomonidan esa – uning qon-qarindoshlaridan biri imzolaydi. Nikoh shartnomasini imzolash vaqtida er yoki uning otasi to‘liq yoki qisman “mahr” to‘laydi. “Mahr” – bu nikoh to‘lovi bo‘lib, u xotin uchun to‘lov bo‘lmay, balki uning moddiy manfaatlarini himoya qilishga (ayniqsa, nikoh to‘xtatilganda) qaratilgan haq-huquqidir. Shariatda nikoh o‘qilayotgan vaqtda nikohlanuvchi er nikohlanuvchi xotinga mahr berishi shart, deyilgan. A. Fitratning aytishicha: “Mahr – kuyovning kelininga beradigan do‘stona hadiyasi”. Mahr shaxsan ayolning o‘ziga berilishi lozim bo‘lgan ma‘lum mablag‘dir. Mahrning miqdori ayol yashab turgan joy, u yerdagi urf-odatlar, jamiyatning iqtisodiy ahvoriga qarab belgilanadi. Mahr kelining haqqi bo‘lib, undan zo‘rlab olishga kuyovning ham, otasining ham, haqlari yo‘q. Ammo kelin o‘z ixtiyori bilan otasiga yoki kuyovga qisman yoki hammasini berishi mumkin. Alloh taolo mahrni xotin-qizlarning haqqi sifatida, taqdirlab joriy qilgan. “Mahr” ahdi nikoh yoki er-xotinlik qilish barobarida ayol haqdor bo‘ladigan narsaning ismidir. Mahr turli nomlar bilan ifodalanadi. Qur‘oni Karimda unga nisbatan “sadoq”, “sadaqa”, “ajr”, “fariyza”, “nihla” ismlari ishlatilgan. Ba‘zi ulamolar: “Mahrning o‘nta ismi bor”, deganlar. Alloh taolo “Niso” surasida quyidagicha marhamat qiladi: **“Ayollarga mahrlarini ko‘ngildan chiqarib bering” (4-oyat)**. Berilganda ham, kuyov tomonidan chin qalbdan

¹ <https://hordiq.uz/2020/12/22/yurist-kelininga-beriladigan-mahrni-qonunchilikka-kiritishimiz-kerak/>

² Ценз-бу шахсинг у ёки бу хукуқдан фойдаланиш имконини бериш ёки чеклашдир.

chiqarib berilishi talab etiladi va mahr kelining shaxsiy mulki bo'ladi. Bu shar'iy hukm kelinlarni hurmatlash, taqdirlash va erkalashning muhim bir ko'rinishidir".

Mahr berish farz amal hisoblanadi. Bizda mahrning o'rniga "qalin", "sut puli" kabi iboralar qo'llaniladi, lekin shunga qaramay mazkur tushunchalar mahr o'rnini bosuvchi hisoblanmaydi. Markaziy Osiyoda yashaydigan xalqlarning odatiga kiruvchi "qalin" pulini mahrdan aniq farqlash lozim, qalin puli garchi tashqi tomondan mahrga o'xshasada, u islomni qabul qilgan ko'p xalqlarning qadimdan qolgan urf-odati hisoblanib umuman mahrga aloqasi yo'q. Shu bois, bu odatlarni birinchi o'rinda qonunchilikda hisobga olinishi va mahr tushunchasiga to'g'ri ta'rifni shakllantirish zarur bo'ladi.

Mahr tushunchasini kirgizish qonunchilikda qanday o'zgarishlarni yuzaga keltiradi? Mahr tushunchasini O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligiga kiritish er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning o'zgartirilishiga olib keladi. Bizning nazarimizda, shariat va qonunchilik o'rtasiga chegara qo'yimaslik lozim. Chunki shariat keng ma'noda turli ijtimoiy tartibga solish me'yorlari majmuasi bo'lib, ularning ichida ma'naviy, huquqiy va diniy, xulq-atvor hamda urf-odat qoidalari o'z aksini topadi. Shariat musulmon kishi uchun o'ziga xos konstitutsiya va undan ham muhimroq bo'lgan asosiy qonun hisoblanadi. Shariat o'zida musulmon kishi hayot faoliyatining ko'pgina sohalari: shaxsiy, ijtimoiy va madaniy hayotda inson huquq va ehtiyojlarini mujassamlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida uy-joy bilan ta'minlash er yoki xotin majburiyati etib belgilab qo'yilmagan. Qonun chiqaruvchi faqat bir tarafning manfaatlarini himoya qilishi noto'g'ri ekanlik tamoyilidan kelib chiqadigan bo'lsak, er yoki xotin zimmasiga uy-joy bilan ta'minlash majburiyati yuklanishi noto'g'ridir. Qolaversa, gender tengligi tamoyili nuqtai nazaridan ham Oila qonunchiligi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarda oila huquqiy munosabatlarda ishtirokchilarining teng huquqliligini belgilab beradi. Amaliyotda yuzaga kelayotgan ayolning ta'minotsiz yoki uy-joysiz qolib ketish sabablarini chuqur tahlil etgan holda xulosalar qilish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari gender tengligi tushunchasini bugungi kunda faqat ayol huquqlari sifatida talqin etilishi ham noto'g'ridir. Qonunchilik shu nuqtai nazardan har ikkala tarafning teng imkoniyatlarini e'tiborga olgan, agar er nogiron, ishsiz yoki yordamga muhtoj holatda bo'lganda ayolning ta'minot berish majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Agarda mahr tushunchasi qonunchilikka kiritiladigan bo'lsa, birinchi o'rinda uning aniq chegarasini, eng kam va yuqori miqdorini belgilab olish lozim. Bu bo'yicha shariatda kerakli ko'rsatmalar berib o'tilgan. Shuningdek, mahrga faqat uy-joy qilib berish kerak degan shart yo'q. Er ayolni uy-joy bilan ta'minlash o'zining ahloqiy majburiyati va moddiy imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashadi. Hozirgi kunda aksariyat nikoh yoshidagi erkaklarning uy-joy sotib olib berish imkoniyati

mavjud emasligini e'tiborga olib, ularning nikoh qurish huquqlari cheklanishiga va jamiyatimizda "fuqarolik tusidagi oilalar"ning yuzaga kelishiga, yosh yigitlarning nikohsiz oila munosabatlariga kirishishiga, qizlarning turmush qurish vaqtlari o'tishiga va reproduktiv salomatlik masalalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Agar mahr tushunchasi musulmon huquqi manbalari, shariat qonun qoidalari asosida tartibga solinishini inobatga oladigan bo'lsak, u holda O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi bilan tartibga solinadigan er-xotinning mulkiy va nomulkiy munosabatlariga nisbatan shariat qoidalarini modifikatsiya qilgan holda kiritish lozim bo'ladi. Bunda mahrning mazmun-mohiyati, miqdori va qachon qanday tartibda berilishiga oid talablar kiritilishi ham kerak bo'ladi. Chunki, qonun normalari aniqligi va aniq ta'sir etish doirasiga egaligi, shuningdek, muayayn huquq yoki majburiyat yuklashi bilan hususiyatli ekanligini unutmasligimiz kerak.

Mahrning miqdori qanday va u qanday aniqlanadi? Musulmon huquqida mahrning miqdoriga Nabiy sollallohu alayhi va sallam zamonlaridagi miqdori hamda uning bugungi milliy valyutamizda qancha so'mga to'g'ri kelishi haqida ko'plab savollar beriladi va ba'zilar buni o'zicha, bir tomonlama hisoblab, urfodatlarimiz, shuningdek, iqtisodiy sharoitimizga to'g'ri kelmaydigan darajada katta miqdorda belgilab qo'yayotgan holatlar ham uchrab turadi. **Hadisi sharifda** "mahrning eng xayrlisi eng yengili" ekanligi aytilganini ta'kidlash zarur. Bundan ko'zlangan maqsad mahr erkak kishini qiynab qo'ymaydigan darajada bo'lishi kerak. Biroq shunday bo'lsa-da, mahrning eng ko'p miqdori chegaralab qo'yilmagan. Ammo mahrni haddan tashqari oshirib yuborish va uni urfga aylantirish ham dinimizda ma'qullanmaydigan ishlar sirasiga kiradi. Chunki, bu holatda erkaklarning uylanib, qizlarning turmushga chiqishi juda qiyin bo'lib ketadi. Boz ustiga, yuqorida keltirilgan hadisi shariflar ham mahr masalasida haddan oshish noto'g'ri ekanligiga dalolat qiladi. Shu bilan birga, mahrning eng oz miqdori Hanafiy mazhabida 10 dirham kumush tangadan iborat deb belgilangan. Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "O'n dirhamdan oz mahr yo'q", – dedilar". Mahr pul bo'lishi shart emas. Kiyim, taqinchoq yoki shunga o'xshash mulk bo'ladigan va halol narsa bo'lsa joiz. Kuyov taraf 10 dirham yoki uning qiymatidan oz miqdordagi narsani mahr deb aytgan bo'lsa, baribir o'n dirham yoki uning qiymatidagi narsani berishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, eng yuqorisi deb 400 dirham (50 gramm tillo) belgilanadi va ko'plab olimlar mahr berishda mazkur miqdordan oshirmaslik afzalligini ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, 50 gramm tillaning bozordagi o'rtacha narxi bo'yicha mahr berish sunnatga muvofiq bo'lgan. Mazkur raqamlar hisoblab ko'rilganda, 50 gramm tillo x 210 (1 gramm oltin 8 karatlisi: 209,472.68)³ ming so'm = 10 500 000 so'm. Demak bu miqdordan oshirish mumkin emas. Binobarin, mahr tayin qilishda shu summadan

³ <http://ru.goldnп.com/uzs>, <https://www.worldforexrates.com/ru/xau/uzs/1-exchange-rate/> 23 декабр 2020 йил холатига кўра

o'shirib yuborish maqtalmaydigan ish bo'ladi. Bunday o'ylab qaralsa, 50 gramm tillo ham kichkina pul emas. Aslida o'zaro rozilik asosida bo'lsa, yuqorida aytilganidek 10 dirham kumush tanga miqdoridan tushib ketmasa, erkakni qiynab harijga tushirmaydigan darajada bo'lsa, taqriban mahrning yuqoridagi oraliq miqdorida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Albatta, 400 dirham kumush miqdorida berilishi shart emas. Shu bilan birga, mahrning yengil bo'lib, erkak va ayolning bir-biri bilan turmush qurishlariga to'g'anoq bo'lmaydigan darajada bo'lishi, hadisi shariflarga ko'ra, eng xayrli va barakatli mahr hisoblanishini eslatib o'tmoqchimiz. Afsuski, ba'zi davlatlarda mahrda haddan tashqari yuqori miqdorini belgilash oqibatida turmush qurish yoshi juda kattalashib ketyapti va qanchadan-qancha qizlar turmush qurolmay qolmoqda. Shuning uchun, agar mahr tushunchasiga oid qonunchilikda norma ishlab chiqiladigan bo'lsa, uning eng oz miqdori 10 (3 gramm tillo) dirham kumush tangadan va eng yuqorisi esa 400 dirham (50 gramm tillo)dan oshmagan holda o'rtacha qiymatda belgilanishini talab etadi. Kelin-kuyov o'zaro kelishib, ikkimiz ham rozimiz, bu hukmga amal qilmay qo'yaveramiz, deyishga ham imkonlari yo'q. Agar bilimsizlik oqibatida yoki boshqa sabablarga ko'ra mahr belgilanmay, nikohlanib ketgan bo'lsalar ham, keyin baribir mahr berilishi kerak. Hattoki, er mahrni berishdan oldin vafot etib qolsa ham, merosxo'rlari mahrni ado etishlari lozim bo'ladi. Ushbu oyatda er o'ziga xotin bo'lishga rozi bo'lgan ayolga mahrni og'rinib emas, chin ko'ngildan chiqarib berishi lozimligi uqtirilmoqda va mahr kelinning o'z mulkiga aylanishiga ham ishora qilinmoqda.

Mahrni qonunchilikka kirgizish bo'yicha berilgan taklifda Misr va Eron davlatlari misol tariqasida keltirib o'tilgan, avvalo, Misr va Eron shariat asosida yashaydigan davlatlar qatorida ekanligini, ularning mazhabi va e'tiqodlari boshqa ekanligini e'tiborga olishimiz lozim. Masalan, Eronda musulmonlar shia e'tiqodiga amal qilishadi, shu bois, ular nikoh va mahr tushunchalariga shia e'tiqodi nuqtai nazaridan kelib chiqib yondashadi. Misol uchun, ularda 1 soatlik, kunlik va oylik nikoh turlari mavjud. Shuning uchun, mahr tushunchasi va boshqa tushunchalarda mazkur davlatlar amaliyotidan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Albatta, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi zamon talabi va amaliyotdagi holatlardan kelib chiqqan holda takomillashtirilishi zarur. Bunda bugungi kundagi ayollarning ta'minot olishi, bola huquqlari va ko'pgina salbiy holatlarning yechimini topishi diqqat markazidadir. Ammo qonunchilikni takomillashtirishning o'z tartib qoidalari va tamoyillari mavjudki, bir huquqiy tizimning ikkinchi huquq tizimi qoidalariga aralashuvi oqibatlari, fuqarolarning huquq va manfaatlarini e'tiborga olinishi, shuningdek, xalqaro huquq tamoyillarining talablarini buzulishiga olib keladigan holatlar inobatga olinishi shart.

Jamiyatda huquqiy savodxonlik masalasini bir necha yillardan beri Respublikamiz miqyosida turli ko'rinishdagi tadbirlar orqali oshirilishiga qaramay, negadir ajrim masalalarida qonunchilikning mukammal emasligi haqida fikrlashga va unga o'zgartirish kiritishga harakat qilamiz. Ammo oilaviy munosabatlarni

tartibga solinganlik nuqtai nazardan kuzatadigan bo'lsak, mazkur munosabatlarga qonunchilik normalari, shariat normalari, urf-odat normalari aralash tarzda tatbiq etib kelinadi. Ba'zan biz buni o'zbekchilik deb ham aytamiz. Ammo hech bir norma na diniy, na qonunchilik, na urf-odat er va xotinni o'zaro behurmatsizlik, zo'ravonlik, ta'minotsiz qoldirish, bola manfaatlarini toptalishini targ'ib etmaydi. Shu nuqtai nazardan, ajrimlar va uy-joy ta'minot masalalarini yechimiga faqat qonunchilikni takomillashtirish vositasida erishib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bizning dinimiz barcha narsada mo'tadil din ekanini hisobga olib, mahrning ham mo'tadil ravishda joriy bo'lishini o'ylab ko'rishimiz zarur. Shariatda mahrning eng ozi qancha ekani ko'rsatilgani bilan birga, ko'pining chegarasi yo'qligi ham ma'lum. Ammo kelin tarafga mahrning ozi yaxshiligini uqtirish bilan birga, kuyov tarafga himmatni baland qilish aytiladi. Shuning uchun, nazarimizda qonunchilikka muqaddas dinimiz shariat qonunlarini joriy qilishda bosqichma-bosqich, ilmiy asoslangan holda, xorijiy davlatlar tajribasining ijobiy va salbiy holatlarini hisobga olgan holda, qolaversa, jamiyatimiz hayotida ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bashorat qilgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

X. X. SAYDIVALIYEVA

Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi huzuridagi
"Mahalla va oila" ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi

B. A. XONTURAYEV

Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi huzuridagi
"Mahalla va oila" ilmiy tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi